XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 9-sentabr VII-10-84-6-86-K/25 Uychi tumani

Uychi tumanidagi geografik obektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 20-oktabrdagi 08-09147-sonli “Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” ijrosini ta’minlash maqsadida tuman komissiyasi bergan xulosasiga asosan Uychi tumanidagi 1 ta istirohat bog‘i va 1 ta xotira hiyoboni, 2 ta ziyoratgoh hamda 4 ta qabriston obyektlari tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi,

QAROR QILADI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2025-yil apreldagi 05-19-6498-sonli ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Uychi tumanidagi 8 ta obektlar nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Z.Rahmatov), kadastr agentligi (N.Boyqo’ziyev), tuman qurilish bo‘limi (B.O‘rinov), obodonlashtirish boshqarmasi (A.Rahmatilla), boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko‘rsatilgan geografik obektlarni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorati qilish tuman hokimining birinchi o′rinbosari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Muydinov) zimmasiga yuklatilsin yuklatilsin.

Kengash raisi  MUSAYEV SHUXRAT MIRSODIQOVICH

Xalq deputatlari Uychi tumani
Kengashining
2025-yil 9-sentabrdagi
VII-10-84-6-86-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning joylashgan manzil	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	obyekt nomini kelib chiqishi
1	Shifokor MFY	bog‘	"Mustaqillik" nomli madaniyat va istiroxat bog‘i	Mustaqillik istiroxat bog‘i	Ozbekiston Respublikasi mustaqilli kka erishgan davrlarda tashkil topgan
2	Beruniy MFY	xotira maydoni	Xotira maydoni	Xotira hiyoboni	2 jahon urushida qurbon bo‘lgan urush qatnashchilari hotirasiga atab qurilgan
3	Gumbaz MFY	ziyoratgoh	Devona buva	Devona buva	Devona buva ziyoratgohida “Devona buva” maqbarasi XII-XV asrlardan boshlab, Rim me’morchiligi asosida yog‘och ishlatmasdan, chiroyli, tomi yarim doira shaklida pishiq g‘ishtdan yevropacha usulda qurila boshlangan.
4	Daxyakota MFY	ziyoratgoh	Daxiyakota	Daxiyakota	Daxiyakota ziyoratgohi XIX asrga mansub. Daxiyakota - tirik, g‘oyib va barhayot bo‘lgan kishi degan manolarni anglatadi. Daxiyakota 11 og‘a-inining eng kenjasi degan rivoyatlar mavjud
5	Yangihayot MFY	qabriston	Yangihayot	Yangihayot	Yangihayot qabristoni, mahalla nomi bilan ataladi.
6	Obod MFY	qabriston	Ozod	Abdulxaq A'lambuva	Mazkur qabriston maydonini markazida 18-asrda yashab o‘tgan ulamo va shayx yashab o‘tgan
7	Mirzarovot MFY	qabriston	Mo‘yimuborak	Mo‘yimuborak	Mo‘yimuborak qabristoni hududida Mo‘yimuborak maqbarasi joylashgan.

8	Ezgulik MFY	qabriston	Oxunboboyev	Oqmozor buvam	O‘tgan asrda yashab o‘tgan aziz tabib yashab o‘tgan *(shu joyda oqarib qolgan insonlarni davolagan)*